



SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINING NAZARIY VA METODOLOGIK MOHIYATI

Bozorov Jasurbek Saydulla o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyoti” yo'nalishi magistratura talabasi

Telefon: +99894 338 69 99. jasurbekkbozorovqash@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7932697>

ARTICLE INFO

Received: 04th May 2023

Accepted: 12th May 2023

Online: 13th May 2023

KEY WORDS

Shaxsiy, hayot, daxlsizlik, inson, qonun, huquqlari, erkinliklari, Deklaratsiya, Konvensiya, metodik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada shaxsiy hayot daxlsizligining metodologik tahlili haqida so'z yuritigan bo'lib, bu borada olimlarning fikrlari o'rganilgan.

Inson shaxsiy hayoti XX asr oxiridagi axborot texnologiyalarining rivoji natijasida eng ko'p zarar ko'rish xavfi ostida qolgan, huquqiy jihatdan nazoratdan chetda bo'lgan, nazariy jihatdan esa mukammal anglashilmagan inson hayotining muayyan sohasidir. Ushbu soha chetdan har qanday aralashishni ma'qullamaydi hamda demokratik huquqiy davlatdan alohida daxlsizlik, ya'ni huquqiy himoyani talab qiladi. Inson shaxsiy hayoti daxlsizligi huquqi, ya'ni g'arbcha “the right to privacy” yoki “right to be alone”ning yuzaga kelishi hamda rivojlanishi demokratik islohotlar bilan bog'liq bo'lgan. Antik davrdan rivojlanishni boshlagan, Jon Lokk ta'limotidan keyin insonning tabiiy huquqlaridan biri hisoblangan inson shaxsiy hayoti daxlsizligi huquqi 1948-yil, 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan va e'lon qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 12-moddasida o'z ifodasini topdi. Unga ko'ra: “Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomus va sha'niga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas”¹. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 12-moddasi asosida o'z muqaddimasida belgilangan xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, inson huquqlariga sodiqligini e'lon qilgan. O'z shaxsiy hayotiga egalik qilish tushunchasi “inson” tushunchasining ajralmas qismi hisoblashini inobatga oladigan bo'lsak, uning huquqiy muhofaza qilinishi nafaqat fuqaroga, balki davlat uchun ham birdek muhim.

Shu narsani ta'kidlash kerakki, g'arb davlatlari nazarda tutgan “Prayvesi”, ya'ni shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi bizning qonunlarimizda nazarda tutilgan “shaxsiy hayot” tushunchasidan tubdan farq qiladi. Barcha moddiy jarayonlar inson ong holatiga ma'lumot sifatida kirishini hisobga oladigan bo'lsak, inson shaxsiy hayoti to'g'risidagi tushunchalar ham

¹ <http://constitution.uz/oz/pages/humanrights>



aslida insonning jamiyat va davlatdan alohida ajratilgan faqat o'ziga tegishli ma'lumotlarni oling holatida "shaxsiy hayot" kategoriyasiga bog'lashi bilan bog'liq. Insonning faqat o'ziga tegishli hamda hamma bilishini istamaydigan ma'lumotlari G'arb "prayvesi" sini, to'g'rirog'i "shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi" tushunchasining mohiyatini tashkil etadi. G'arb payvesisining shakllanishi XIX asrning oxiriga borib taqaladi. 1890-yilda AQSH yuristlari bo'lgan Samuel D. Uorren hamda Lous Brendislar "The Right to Privacy", ya'ni "shaxsiy hayotga bo'lgan huquq" nomli maqolani chop etishdi². Ushbu holatni G'arb olimlari G'arb "prayvesi" sining yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan ilk maqolaning chiqishi sifatida baholashgan. Maqolada ommaviy axborot vositalarining inson shaxsiy hayotining aniq tomonlariga aralashuvining yo'l qo'yib bo'lmasligi g'oyalari o'z ifodasini topgan. Maqolaning bosh g'oyasi sifatida har bir shaxsning shaxsiy hayot hududida muayyan qonuniy manfaatlarga egaligi bayon qilingan. Mualliflar "prayvesi" ni "right to be alone", ya'ni "yolg'iz qolishga bo'lgan huquq" singari belgilashgan. Ushbu maqoladan so'ng AQSHda shaxsiy hayot daxlsizligi huquqiga bo'lgan munosabat o'zgarib boshladi. Bu ayniqsa AQSH konstitutsiyasiga kirgizilgan birinchi, uchinchi, to'rtinchi hamda beshinchi o'zgarishlarda o'z ifodasini topdi. 1867-yilda Avstriyada, 1947-yilda Italiyada, 1953-yilda Daniya Qirolligida, 1949-yilda Germaniyada shaxsiy hayot daxlsizligini davlat tomonidan ta'minlanishi bilan bog'liq qonunlar qabul qilindi. 1948-yilda qabul Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyada "prayvesi", ya'ni shaxsiy hayot daxlsizligining o'rin olishi, butun jahon miqyosida inson shaxsiy hayotiga bo'lgan munosabatni butunlay o'zgartirdi. Ushbu xalqaro hujjat butun dunyoning ko'plab davlatlari tomonidan o'z konstitutsiyalariga yoki boshqa fuqarolarning shaxsiy hayoti bilan bog'liq huquqlariga daxl qiluvchi normativ-huquqiy hujjatlariga o'zgartirish kiritishiga sabab bo'ldi. Inson huquqlari nazariyasida "prayvesi", ya'ni shaxsiy hayot daxlsizligi alohida o'rganila boshlandi. 1966-yil 16-dekabrda fuqarolik hamda siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 17-moddasida ham shaxsiy hayot daxlsizligi insonning ajralmas tabiiy huquqlaridan biri ekanligi tan olindi. 1950-yil 4-noyabrda qabul qilingan inson huquqlari hamda asosiy erkinliklar to'g'risidagi Yevropa konvensiyasining 8-moddasi birinchi qismida ham shaxsiy hayot daxlsizligining qat'iy belgilanishi butun yevropa davlatlarining, albatta sobiq SSSRdan tashqari, konstitutsiyaviy qonunlariga o'zgartirish kiritilishiga sabab bo'ldi. 1974-1976-yillarda Shvetsiya, Portugaliya hamda sobiq SSSR konstitutsiyalarida shaxsiy hayot daxlsizligi o'z ifodasini topdi. 1974-yilda AQSHda "Privacy act", ya'ni xodimlarning shaxsiy ma'lumotlaridan yuridik shaxs egasining oqilona foydalanishini tartibga soluvchi hamda uni noqonuniy oshkor etishini ta'qiqlovchi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun anglo-sakson huquqi rivojlangan davlatlarda keskin rivojlandi. 1988-yilda Avstraliyada, 1993-yilda Yangi Zelandiyada, 2017-yilda Hindistonda, 2018-yilda Britaniyada ushbu qonun qabul qilindi. 1990-yilda Buyuk Britaniyada "Privacy International" xalqaro notijorat tashkiloti tashkil topdi. Ushbu tashkilot xalqaro miqyosda insonlarning shaxsiy hayot daxlsizligini muhofaza qilishga ko'maklashish bilan shug'ullanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xalqaro huquqda prayvesi tushunchasi qanchalik keng talqin qilinmasin, uning huquqiy ta'rifi qonunchilikda mavjud emas. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi unga berilgan nazariy ta'riflarning ahamiyatini keskin

² Warren S.D., Brandeis L.D. The Right of Privacy // Harvard Law Review. – Vol. 4. – 1890. – № 5. – P. 193– 220.



pasaytirdi. Ba'zi fan olimlari, jumladan, Artur Miller, Hyuman Gross, Kolin Bennet, Robert Post, Judiz Harvis Tomson bu atamaga javob topish imkonsiz deya tan olishgan hamda uning tarkibini yoritish bilan kifoyalanishgan³.

Dastavval, shaxsiy hayot daxlsizligini shaxsiy hayot va daxlsizlik tushunchalariga bo'lib olgan holda izohlash lozim. "Shaxsiy" tushunchasi subyektiv, xususiy so'zlariga sinonim bo'lib, muayyan shaxsga tegishli, muayyan shaxs foydalanadigan degan ma'noni anglatadi. Shaxsiy hayot atamasi esa *muayyan shaxsgagina tegishli bo'lgan hamda ugina foydalanishi mumkin bo'lgan har qanday tashqi ta'sirlardan himoyalangan sotsial munosabatlardir*. Shaxsiy hayot tushunchasining o'zi yuridik jihatdan to'liq izohlanmagan sotsial atama hisoblanadi. "Daxlsizlik" so'zining o'zi ikki ma'noda anglatib, birinchisi, biron bir ishga daxli, aloqasi yo'qlik, taalluqli emaslikni anglatasa, ikkinchidan, *har qanday xavf – xatar yoki tajovuzdan himoya etilganlikni anglatadi. Shaxsiy hayot daxlsizligi esa insonning faqat o'zigagina tegishli bo'lgan turmush tarzining tashqi ta'sirlardan butkul himoya qilinganligini, qonun asosida himoya qilinishini anglatadi*.

Rossiyalik tadqiqotchilar prayvesiga to'liq ta'rif berishga urinishgan. Jumladan, Rus olimlaridan R.B.Golovkin shaxsiy hayotga quyidagicha ta'rif bergan: "Shaxsiy hayot inson va davlat tomonidan ta'minlanadigan, jamiyatdan nisbatan avtonom bo'lish uchun mo'ljallangan, murakkab tuzilishga ega bo'lgan, huquq va axloq bilan tartibga solinadigan, inson faoliyatining alohida sohasi hisoblanadi"⁴. R.B.Golovkinning ushbu tarifi "Shaxsiy atamasi"ni mavhumlashtirib ko'rsatgan. Shaxsiy hayot murakkab tuzilishga ega emas. Bundan tashqari shaxsiy hayot inson tomonidan ta'minlanmaydi, balki insonning ichki dunyosi bilan boshqariladi. R.B. Golovkin fikriga qarshi shuni aytish mumkinki, agar shaxsiy hayot jamiyatdan avtonom bo'lsa, nega axloq va huquq bilan tartibga solinsin. Shaxsiy hayotni tartibga solish majburiy emas, balki u muhofaza qilinishga muhtoj. I.L.Petruxin shaxsiy hayot tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan: "Butun oilaviy hayot, qarindoshlik va do'stlik aloqalari, kundalik ishlar, jinsiy va boshqa xususiy munosabatlar, fikrlash tarzi, qiziqishlar – bularning hammasi "shaxsiy hayot" tushunchasini aniqlashtiradi"⁵.

I.L.Petruxin shaxsiy hayot tushunchasining elementlarini keltirib o'tgan, xolos. Lekin shaxsiy hayot tushunchasini aniqlashtirmagan, ya'ni ularni bog'lay olmagan. Inson hayotining qaysi jihatlari shaxsiy hayoti hisoblanishini M.E. Petrosyan nazariy jihatdan asoslab bera olgan: "Shaxsiy hayot individning o'zi tomonidan boshqariladigan, tashqi yo'naltiruvchi ta'sirdan, shuningdek, huquqiy tartibga solishdan ham mustaqil bo'lgan, insonning ruhiy hamda jismoniy maydonidir"⁶. M.E.Petrosyaning qarashlari boshqa rus olimlariga qaraganda "shaxsiy hayot" tushunchasiga ancha yaqin bo'lsada, u ham ba'zi kamchiliklardan holi emas. "Huquqiy tartibga solishdan mustaqil" degan iborasi "shaxsiy hayot" tushunchasiga nisbatan

³ ARTHUR R. MILLER, THE ASSAULT ON PRIVACY: COMPUTERS, DATA BANKS, AND DOSSIERS 25 (1971); Hyman Gross, *The Concept of Privacy*, 43 N.Y.U. L. Rev. 34, 35 (1967); COLIN J. BENNETT, REGULATING PRIVACY: DATA PROTECTION AND PUBLIC POLICY IN EUROPE AND THE UNITED STATES 25 (1992); Robert C. Post, *Three Concepts of Privacy*, 89 Geo. L.J. 2087, 2087 (2001); Judith Jarvis Thomson, *The Right to Privacy*, in PHILOSOPHICAL DIMENSIONS OF PRIVACY: AN ANTHOLOGY 272, 272 (Ferdinand David Schoeman ed., 1984).

⁴ Головкин Р.Б. Правовое и моральное регулирование частной жизни в современной России: Дис. ... д-ра юрид. наук. – Н. Новгород, 2005. – С.9.

⁵ Петрухин И.Л. Личная жизнь: пределы вмешательства. М., 1989.

⁶ Петросян М.Е. Что такое неприкосновенность частной жизни // Правозащитник. 1995. № 1.



butunlay nomuvofiq bo'lgan. Huquqshunoslarga shu narsa ma'lumki, jamiyat hamda inson hayotida huquq kirib bormagan hamda tartibga solmagan soha mavjud emas. Agar qaysidir ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibga solinmayotgan bo'lsa, bu huquq shu munosabatlarda mavjud degani emas, aksincha bu munosabatlarni huquqiy tartibga solishga ehtiyoj mavjud emas degani. "Shaxsiy hayot" shunchaki sotsial atama emas, balki huquqiy atama hamdir. Bu uning huquqiy tartibga solish jarayonidan holi mavjud bo'la olmasligini anglatadi. Shu sababli "mustaqil" so'zini "avtonom" so'zi bilan almashtirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Agarda inson shaxsiy hayoti huquqiy kafolatlanmaganda, qo'riqlanmaganda u inson hayotidagi o'z mohiyatini yo'qotib, faqat olimlar nazariyasidagi inson shaxsiyati bilan bog'liq atamaga aylanar edi. To'g'ri, G'arbda parayvesi insonning to'liq mustaqilligini kafolatlaydi, lekin Sharqda bu o'z ifodasini topgani yo'q.

I.V.Smolkova esa "shaxsiy hayot" tushunchasini shaxsiy hayotning huquqiy kafolatlangan shakllari ko'rinishida yoritishning uddasidan chiqqan: "Shaxsning davlat, jamoat tashkilotlari, fuqarolar tomonidan nazorat qilinmaydigan oilaviy, shaxsiy, yaqin munosabatlar, qiziqishlar va ehtiroslar sohasidagi hayotiy faoliyati; yolg'izlik, fikrlash, so'z erkinligi; boshqa shaxslar bilan aloqada bo'lish maydonini belgilash erkinligi; uy-joy, shaxsiy yozuvlar, yozishmalar, pochta jo'natmalari va boshqa xabarlar daxlsizligi; telefon va boshqa aloqa vositasi orqali bo'lgan muzokaralarning mazmunining sirliligi; farzand asrab olish siri, shaxsiy va oilaviy sirlarni ruhoni, shifokor, advokat, notariusga oshkor qilinishdan qo'rqmagan holda topshirish imkoniyatidir"⁷.

I.V. Smolkovaning ta'rifi shaxsiy hayot tushunchasining mazmun doirasini qamrab ola olgan. Lekin I.V. Smolkova faqat shaxsiy hayot tushunchasiga huquqiy yondashib, shaxsiy hayotning davlat tomonidan muhofaza qilinadigan tomonlarini yoritishga harakat qilgan, xolos. Shaxsiy hayot tushunchasi sotsial atama sifatida keng doiradagi ma'noni o'z ichiga olganligi uchun huquqiy jihatdan yondashish uning asl mohiyatini ochib berolmaydi, ya'ni u faqat qonunda mavjud bo'lgan huquqiy kafolatlardan iborat emas. Insonning shaxsiy hayoti Petruksin aytganidek, huquqiy jihatdan tartibga solinmaydigan, balki muhofaza qilinadigan ruhiy va jismoniy maydonidir. Shaxsiy hayot shu ikki maydonning o'zaro aloqasi mahsulidir.

A.X.Xuade ruhiy maydonda yadro bo'lishini ta'kidlab, uni quyidagi elementlarga ajratgan: intellektual, muomala hamda tibbiy-fiziologik. Intellektual element o'z ichiga ong darajasi, fikrlash doirasi, dunyoqarashi, xarakter xususiyatlari, istak va e'tiqodlari kiradi. Muomala elementi insonning atrofga bo'lgan munosabatini, ijtimoiy aloqalarini o'z ichiga oladi. Tibbiy – fiziologik element esa sog'liq, tashqi ko'rinish, psixikaning alohida xususiyatlarini o'z ichiga oladi⁸. Ruhiy soha chegaralarini insonning shaxsan o'zi belgilaydi. Tashqi chegaralari esa jamiyat va davlat ta'siri ostida belgilanadi. Jismoniy va ruhiy soha oralig'ida yuzaga keladigan do'stona, oilaviy, shaxsiy, jinsiy, diniy munosabatlar insonni boshqa shaxslar bilan bog'laydi. Mana shu vaziyatda inson boshqa insonlar munosabatga kirishadi va jamiyat bilan o'z shaxsiyati bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan aloqa bog'laydi. Inson jamiyat bir qismi bo'la turib, undan mustaqil bo'la olmaganidek, o'z ichki dunyosini ochib beruvchi "shaxsiy

⁷ Смолькова И.В. Тайна: понятие, виды, правовая защита // Юридический терминологический комментарий. М., 1998.

⁸ Хуаде А.Х. Уголовно-правовая характеристика нарушения неприкосновенности частной жизни дис. канд. юрид. наук. – Кисловодск., 2015. – 41 с/



hayoti"ni himoya qilinishiga zarurat sezadi. Inson shaxsiy hayoti hisoblanadigan maydonda boshqa shaxslarning shaxsiy hayoti hisoblanadigan o'zga maydonga kirmagan holda istagan harakatni amalga oshira olishi mumkin. Aynan qanday ishlar qilish imkoniyatini I.V.Smolkova to'liq yoritib bergan.

Ko'plab olimlar insonning "shaxsiy hayoti"ni tarkibiy qismlarga ajratgan holda izohlashga harakat qilishadi. E.E. Kalashnikov "shaxsiy hayot"ni quyidagi elementlardan iborat deb hisoblaydi:

1) *ichki ruhiy maydon;*

2) *shaxsiy aloqalar maydoni;*

3) *tashkiliy element;*

4) *tibbiy – fiziologik element*

5) *o'zini tutish elementi;*

6) *moddiy vositali element*⁹. E.E. Kalashnikov mazkur elementlarning bir-biridan farqli jihatlariga alohida urg'u bermagan.

Y.A. Zamoshkin "shaxsiy hayot" tushunchasini quyidagi sohalarga ajratgan:

1) *insonning o'y va hislari bilan boyigan ruhiy hayoti sohasi;*

2) *shaxsiy o'zaro muloqotlar sohasi;*

3) *shaxsiy va oilaviy iste'mol sohasi;*

4) *moddiy ashyolar bilan bog'liq munosabatlar sohasi*¹⁰.

Yuqoridagi olimlarning barchasi shaxsiy hayot tushunchasini elementlarga ajratishda institutsional yondashib, tushunchaga o'z subyektiv fikrlaridan kelib chiqib ta'rif berishga harakat qilishgan. Lekin "shaxsiy hayot" o'zgaruvchan holat ekanligini, shaxs bilan bog'liq istalgan holatni "shaxsiy hayot"ga taalluqli yoki taalluqli emasligini belgilash faqat shaxs ixtiyorida ekanligini unutmazlik lozim. Shu asosda yuqoridagi olimlarning qarashlari hozirgi axborot texnologiya asrida "shaxsiy hayot" tushunchasiga nisbatan dogmatik ahamiyat kasb etadi hamda ularning ta'rifini bir-biriga zid kelish imkoniyatini oshiradi. Insonning "shaxsiy hayot"iga bo'lgan munosabati uning ong darajasi hamda psixikasi xususiyatlari bilan bog'liq deb hisoblaymiz. Shu sababli "shaxsiy hayot"ning nazariy tomonlarini emas, balki sifatliy belgilarini aniqlashtirish lozim.

O'zbek olimlari konstitutsiyaviy huquq jihatidan shaxsiy hayot daxlsizligi huquqiga mavhum yondashishga harakat qilib, "shaxsiy hayot" tushunchasining o'zgaruvchanligini hisobga olishgan. N.S.Saburov quyidagicha ta'rif bergan: "Shaxsiy hayot daxlsizligi – shaxsning tug'ilishi bilan vujudga keladigan va hech kimning aralashishiga yo'l qo'yilmaydigan insonning hayotiy turmush tarzidir"¹¹. A. Saidov yuqoridagi fikrlardan farqli ravishda, shaxsiy hayot daxlsizligining mohiyatini yoritishga harakat qilgan: "Shaxsiy hayot daxlsizligi shaxsning individual hayotiga tashqaridan aralashmaslikni nazarda tutib, bunga fizik (hayot, inson sog'lig'i) daxlsizlik va psixik daxlsizlik (axloqiy, diniy – shaxs sha'ni va vijdoni)"¹².

⁹ Калашникова Е. Е. Уголовно – правовое обеспечение неприкосновенности информации о частной жизни лица: Дисс....канд. юрид. наук.. – М., 2001. – С. 20.

¹⁰ Замошкин Ю. А. Частная жизнь, частный интерес, частная собственность // Вопросы философии. – 1991. – № 1. – С.4–5.

¹¹ А.А.Азизхо'jayev va boshq. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. – T.: TDYI.2008.140-bet

¹² А.Х.Сaidov va boshq. Inson huquqlari umumiy nazariyasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.42-bet/



Alan Uestin, Devid Fleherti, Mark Rotenberg, Richard Posner, Lourens Lessig, Daniel J. Solove hamda boshqa G'arb olimlari shaxsiy hayot daxlsizligi bo'yicha o'z nazariyalarini e'lon qilishgan. Ulardan Alan Uesting ta'limoti ayniqsa diqqatga sazovordir. 1968-yilda nashr etgan "Privacy and Freedom" kitobida Alan Uestin shaxsiy hayot daxlsizligining 4 elementlarini nazariy izohlashga harakat qilgan:

- 1) personal autonomy – insonning shaxsiy avtonomiyasi;
- 2) emotional release – emotsional ozod bo'lish, ya'ni muayyan odamlar bilan munosabatlarda psixologik to'siqlarning buzilishi;
- 3) self – evaluation – anonimlik, ya'ni jamoat joylarida o'zi haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish darajasini mustaqil belgilashi;
- 4) limited and protected communication – yopiq munosabat, ya'ni tor doiradagi odamlar bilan bo'ladigan munosabatni ixtiyoriy ta'minlash¹³.

Quyidagilar professor Daniel J. Solove keltirib o'tgan G'arb "Privacy"si tizimini tashkil etib, "shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi" elementlari hisoblanadi:

- 1) yolg'iz qolish huquqi;
- 2) o'ta shaxsiy ma'lumotlarga boshqalarning ega bo'lish imkoniyatini cheklash imkoniyati;
- 3) mahfiylik yoki boshqalardan istalgan ma'lumotlarni yashirish imkoniyati,
- 4) o'zi haqidagi ma'lumotlardan boshqalar foydalanishini nazorat qilish imkoniyati;
- 5) mahfiy bo'lish holati, individuallik va avtonomiya;
- 6) o'ziga moslik va shaxsiy o'sish, yaqin aloqalardan himoyalani¹⁴.

"Prayvesi" ko'proq shaxsning harakatlariga bog'liq emas, balki holatini boshqarish hamda o'zi haqidagi ma'lumotlarni nazorat qila olish imkoniyatidir. Bunda ma'lumot yoki holatning shaxsiy ekanligini insonning o'zi hal qiladi. Y. Zamoshkin ta'kidlaganidek, *shaxsiy hayot sohasi chegaralari sharti jismoniy ifoda kasb etib, turar – joy devorlari bilan belgilangan, lekin hozirgi davrda bu informatsion tus olmoqda. Boshqacha so'z bilan aytganda, ijtimoiy voqelik sifatida shaxsiy hayot emas, balki shaxsiy hayot to'g'risidagi ma'lumotlarga qiziqish namoyon bo'lmoqda*¹⁵. Hozirgi davrda shaxslar to'g'risidagi ma'lumotga egalik qilish orqali ularni boshqarish, manipulyatsiya qilish, ularni majburlash oson, shu sababli insonni bunday noqonuniy harakatlardan himoya qilishda shaxsiy hayot to'g'risidagi ma'lumotlarni muhofaza qilish zarurati yuzaga keladi. Normativ-huquqiy hujjatlarda insonning shaxsiy hayot daxlsizligi huquqiga, ya'ni shaxsiy hayoti haqida ma'lumotlarning daxlsizligi alohida e'tibor berilgan. Chunki huquqiy harakatlar amalga oshirilganda inson shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish yoki ularga noqonuniy munosabatda bo'lish orqali inson shaxsiy hayotiga aralashish, to'g'rirog'i inson shaxsiy hayoti daxlsizligi huquqini buzish mumkin.

References:

¹³ Alan F. Westin. Privacy and Freedom. – New York: Athenaeum, 1968. – С. 8.

¹⁴ Solove 2008, pp. 12–13.

¹⁵Замошкин, Ю.А. Частная жизнь, частный интерес, частная собственность. / Ю.А. Замошкин // Вопросы философии. 1991. № 1. - С. 4.